www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 1, 2023

“Hayrat ul-abror” dostonini o‘qitish metodi

Umarova Gulnora A’zam qizi
muzafguliroziqov@gmail.com

Annotatsiya. Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonida insonni kamolotga yetaklovchi bir qancha mavzular tilga olingan. Maktab o‘quvchilariga bu asardagi hikoyatlarni o‘qitish orqali ulardagi ijobiy fazilatlarni o‘stirishimiz mumkin. Mumtoz asarlar tili maktab o‘quvchisiga biroz murakkablik qiladi. Shuning uchun hikoyatlarni Taqqoslash , Bosqichma-bosqich , Mozayka , O‘xshashini top kabi metodlar yordamida tushuntirilganda o‘quvchilarning hikoyatdagi asl ma’noni anglashlari yanada osonlashadi.

Abstract. Alisher Navoi’s epic “Hayrat ul-abror” mentions a number of topics that lead a person to perfection. By teaching schoolchildren stories from this work, we can develop positive qualities in them. The language of classical works is a bit complicated for a school student. Therefore, when stories are explained using methods such as Comparison , Step-by-step , Mosaic , Find similar , it becomes easier for students to understand the true meaning of the story.

Kalit so‘zlar: “Hayrat ul-abror”, metod, “Taqqoslash”, “Bosqichma-bosqich”.

Key words: “Hayrat ul-abrar”, method, “Comparison”, “Step-by-step”.

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan hayotimizda adabiyotning o‘rni beqiyos. Adabiyot har birimizga ma’naviy ozuqa beradigan, qalbimizga go‘zal fazilatlarning kurtak ochishiga turtki bo‘ladigan o‘zgacha kuchdir.

“Adabiyot xalqning yuragi, elning ma’naviyatini ko‘rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo‘l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta’sirchan kuchidan foydalanish kerak. Ajdodlar merosini o‘rganish, buyuk madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot yaratish uchun hamma sharoitlar yaratamiz”[1], deya yurtboshimiz ham adabiyotning bugungi hayotimizda ahamiyatli ekanligini ta’kidlamoqdalar. Darhaqiqat, adabiyot insonni ma’naviy kamolotga erishishiga xizmat qiladi va bugungi kun yoshlarini tarbiyalash, ularda Vatanga sadoqat, ota-onaga hurmat, do‘stga vafodorlik kabi tuyg‘ularni uyg‘otishda yordam beradi. Navoiy asarlari necha asrlar avval yaratilgan bo‘lishiga qaramay qalamga olingan mavzulari bugungi kun uchun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. O‘quvchilarni shu asarlar bilan tanitish maqsadida maktablarda har bir sinfga moslab asarlardan quyidagicha namunalar keltirilgan:

- 5-sinfda “Hayrat ul-abror” dostonidan “Sher bilan durroj” hikoyati;
- 6-sinfda “Mahbub ul-qulub”dan parchalar
- 7-sinfda “Sabbai sayyor”dan “Mehr va Suhayl” hikoyati;
- 8-sinfda ruboiy, tuyuq, fard kabi she’rlari;
- 9-sinfda “Farhod va Shirin”dan parchalar;
- 10-sinfda g‘azal, qit’a, ruboiy kabi janrdagi she’rlar;

[1] Prezident Shavkat Mirziyoyevning 20-may kuni Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy bog’ida barpo etilgan “Adiblar xiyoboniga” tashrifi chog’ida so’zlagan nutqidan.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 1, 2023

❖ 11-sinfda “Saddi Iskandariy”dan hikmatlar.[2]

Maktablarda Navoiy asarlarini o‘rganish va o‘rgatishda qator kamchiliklarga yo‘l qo‘yiladi. Deyarli barcha umumta’lim maktablarida asarlardan berilgan parchalarni o‘qituvchi o‘qib beradi yoki biror o‘quvchiga o‘qitadi, qolganlar tinglaydi. O‘qib bo‘lingach darslikda berilgan nasriy bayoni orqali tushuntiriladi Ba’zida asl variant bilan tanishmasdan nasriy bayoni yoki tahlilga o‘tib ketiladi. Asar parchasidagi ba’zi o‘rinlardan yod olishga beriladi. O‘quvchi esa tushunib-tushunmay yodlab keladi. O‘quvchilar Navoiy asarlarining asl ma’nosini anglamasdan qoladilar. Zero, mumtoz asarlarning vazifasi inson ruhiyatiga kirib borib insoniy va ijobiy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qilishdir. Bundan tashqari, mumtoz asarlar o‘quvchini mustaqil fikrlashga, o‘z fikrini bemalol bayon qilishga o‘rgatadi. Shu sababdan darslarda o‘quvchilardan asar haqidagi fikrlari, qanday ma’noni tushunganliklari so‘ralishi kerak. Darslikda berilayotgan Navoiy asarlaridan parchalar asarni to‘laqonli tushunishga kamlik qiladi. Ammo ajratilgan dars soatida katta hajmli asarni o‘qitishning iloji yo‘q. Shu sababli to‘garaklar tashkil qilinib mumtoz asarlarni zamonaviy o‘qitish usuli va vositalarini qo‘llash orqali o‘quvchilarni ta’lim jarayoniga qiziqishi yanada orttirish kerak. Ayniqsa, Navoiyning “Xamsa”si tarkibidagi dostonlarning ma’nosini o‘quvchilarga yaxshiroq anglatish kerak. Chunki bu dostonlarda komil insonning sifatlarini tasvirlagan holda yoshlar ruhiyatiga ta’sir ko‘rsatib, ularda umumbashariy fazilatlarni rivojlantirib, turli illatlarni yo‘qotishda ko‘maklashadi, tom ma’noda yoshlarga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatadi.

“Xamsa” dostonlari tarkibidagi birinchi doston “Hayrat ul-abror” (“Yaxshi kishilarning hayratlanishi) asaridagi maqolatlarda qalamga olingan mavzularni Navoiy o沽quvchiga hikoyatlar orqali sharhlab beradi. Hikoyatlar do沽tlik, iymon, qanoat, rostgo沽ylik kabi turli mavzularda. Bu hikoyatlarni zamonaviy innovatsion texnologiyalar asosida audio va video vositalarini qo沽llash va Taqqoslash , Bosqichma-bosqich , Mozayka , O沽kshashini top kabi metodlardan foydalanib tushuntirilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shunda asar mazmuni o‘quvchilarga osonroq yetkazib beriladi, o‘qituvchiga ham qulay bo‘ladi. Negaki, video, audio yoki animatsion ko’rinishidagi ma’lumotlar o‘quvchi xotirasida tez saqlanadi va berilayotgan ma厠umotni oson tushunishga yordam beradi. Yuqorida keltirilgan metodlardan foydalanish esa o沽qituvchiga oz vaqtda o沽quvchilarga ko沽 ma厠umotlarni qiziqarli tarzda tushuntirish imkonini beradi. O沽quvchilarni esa Navoiy asarlariga bo‘lgan qiziqishini yanada oshirishga,

[2] Adabiyot: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik/ S. Ahmedov, B. Qosimov, R. Qo‘chqorov, Sh. Rizayev. – T.: Sharq, 2020. – B. 156

Adabiyot Q. 2. / S. Ahmedov, R. Qo‘chqorov, Sh. Rizayev. – Toshkent: Ma’naviyat, 2017. –B. 32.

Adabiyot: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua. Qayta ishlangan 4-nashri / Q. Yo‘ldoshev, B. Qosimov, V. Qodirov, J. Yo‘ldoshbekov. – T.: Sharq, 2017. – B. 173..

Adabiyot 8: darslik. S.Olimov, S. Ahmedov, R. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019. – B. 66.

Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktab 9-sinfi uchun darslik. Q. Yo‘ldoshev, V. Qodirov, J. Yo‘ldoshbekov. Qayta ishlangan 4-nashri. – T.: O‘zbekiston, 2019. – B. 53.

Adabiyot darslik-majmua. B. To‘xliyev [va boshq.], – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – B. 82.

Adabiyot 11-sinf: darslik-majmua. B. To‘xliyev [va boshq.], – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. – B. 123.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 1, 2023

hikoyatlardagi ma扣o-mazmunni anglashlariga yordam beradi. Quyida metodlar bilan batafsilroq tanishamiz.

Taqqoslash metodi: Bunda Hayrat ul-abror dagi hikoyatlar boshqa xamsanavislarning Xamsa si birinchi dostonlari tarkibidagi mavzu jihatidan o汴xshash hikoyatlar qiyoslab, taqqoslab o汴gatiladi. Bu metod yordamida o汴quvchilar boshqa Xamsa lar haqida ham ma扣umotga ega bo汴adi va har bir dostonning farqli va o汴xshash tomonlarini o汴ganishadi.

Mozayka metodi: Bu metoddan 2 xil usulda foydalanish mumkin:

1-usul. Hayrat ul-abror dagi hikoyatlar va maqolatlar qog‘ozga chiqartirilib, maqolatlar bir tomonga hikoyatlar ikkinchi tomonga qo‘yiladi yoki doskada ikki ustunda yoziladi. O‘quvchi maqolatga mos hikoyatni topishi kerakligi so‘raladi.

2-usul. Darsda o汴quvchilar hikoyatlar bilan tanishtiriladi. Har bir hikoyatga bitta so汴zdan iborat nom qo汴yilib (vafo, rostgo汴ylik kabi), varoqchalarga yozib chiqiladi. Maqolatlar to汴rtburchaq shaklda varoqqa chiqarib qo汴yiladi. O汴quvchilar darsda maqolatlarni o汴qib qaysi varoqchadagi nomga mosligini topishlari kerak.
Bu metod o汴quvchilar hikoyat va maqolatlarni ma扣nosini anglashlariga yordam beradi.

Bosqichma-bosqich metodi: Bu metodda dostondagi hikoyatlarni o汴rgatishni bosqichma-bosqich ya扣i murakkabdan oddiyga tarzida 4 bosqichda amalga oshiriladi. Bu metoddan qay tartibda foydalanish kerakligini dostondagi 10-maqolatda berilgan rostlik, to汴g汴risozlik haqidagi hikoyat misolida ko汴rib chiqamiz.
1-bosqich. O汴quvchiga bu hikoyatning asli ya扣i masnaviy usuldagi varianti yozilgan varoqlar tarqatiladi. O汴quvchilardan uni o汴qib tushunganlarini yozishlari so汴raladi.
2-bosqich. Bu bosqichda o汴quvchilarga shu hikoyatdagi ba扣zi so汴zlar (tahminan 10 ta so汴z) ma扣nosi yozilgan varoq tarqatiladi. O汴quvchilardan esa shu so汴zlardan foydalanib hikoyatni boshqatdan o汴qib chiqib, lug汴at yordamida qanday ma扣noni tushunganliklarini yozish so汴raladi.
3-bosqich. Endi o汴quvchilarga hikoyatning nasriy tabdili beriladi. Uni o汴qib anglagan ma扣nolarini yozib qo汴yishadi. Tabiiyki, o汴quvchi bu bosqichda birinchi va ikkinchi bosqichga qaraganda hikoyat mazmunini yaxshiroq anglaydi.
4-bosqich. Bu bosqichda o汴quvchilarga shu hikoyatning animatsion ko汴rinishdagi videosi qo汴yib beriladi va multfilmdan tushungan ma扣nolarini yozish so汴raladi. Bu bosqichdan so汴ng o汴quvchi hikoyatni to汴la anglab yetadi va yolg汴n so汴zlash qanday oqibatlarga olib kelishini hikoyadagi durroj misolida ko汴rib, o汴ziga tegishli xulosani chiqarib oladi.
Bu metoddan o汴quvchilar yoshini inobatga olgan holda foydalanishni ham eslatib o汴tmoqchiman. 5-, 6- sinflarda 3- va 4-bosqichidan; 7-, 8-sinflarda 2-, 3- va 4-bosqichidan; 9-, 10-, 11-sinflarda esa to汴rtala bosqichdan foydalanish yaxshi samara beradi. Bundan tashqari, biz tavsiya qilgan “bosqichma-bosqich” metodidan foydalanish o‘quvchining o‘qib tushunish ko‘nikmasi qay darajada ekanligini ham aniqlab berishi mumkin. Ba’zi o‘quvchilar 2-bosqichdayoq hikoyatda qanday voqea tasvirlangan va undan qanday ma’no anglashilayotganini tushunishlari mumkin. Ba’zilari esa 4-bosqichda tushunib yetishadi.

“O‘xshashini top” metodi: Bunda o‘quvchilar zamonaviy adabiyotdan shu hikoyat voqealariga o‘xshash biror asarni topib aytishlari kerak bo‘ladi. Bu metodni asosan dars yakunida qo‘llagan ma’qul.

Biz “Hayrat ul-abror” dostonidan o‘quvchilarning go‘zal fazilatlarga ega bo‘lishlarida yordam beruvchi quyidagi hikoyatlarni tavsiya qilamiz:

1. 5-maqolatdagi Sahovat haqidagi hikoyat (163-165-betlar);

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 1, 2023

2. 7-maqolatdagi Qanoat haqidagi hikoyat (188-190-betlar);

3. 8-maqolatdagi Vafodorlik haqidagi hikoyat (201-204-betlar);

4. 10-maqolatdagi Rostgo‘ylik haqidagi hikoyat (228-231-betlar);

5. 14-maqolatdagi Iskandar haqidagi hikoyat (278-281-betlar);

6. 19-maqolatdagi Bahrom haqidagi hikoyat (347-351-betlar). [3]

“Hayrat ul-abror” asarida hikoyatlardan tashqari maqolat, hayrat kabi bo‘limlar bo‘lishiga qaramasdan bu asarni o‘rganishni aynan hikoyatlardan boshlashni tavsiya qilganimizga sabab hikoyatlar qiziqarli voqealardan iborat, tabiiyki maktab o‘quvchilarini qiziqtira oladi, undagi badiiy obrazlar esa o‘quvchilarga sahovatli kishi qanday bo‘lishi kerakligini, qanoatlilikning foydasini, vafodorlikning o‘zgacha ko‘rinishini, yolg‘on so‘zlashning salbiy oqibatlarini yanada chuqurroq anglashlariga turtki bo‘ladi. Aynan shu hikoyatlardan 10-maqolatdagi rostgo‘ylikning foydasi, yolg‘onchilikning zarari haqidagi “Sher bilan durroj” hikoyati asosida multfilm ishlandi va keng jamoatchilikka namoyish etildi. Boshqa hikoyatlarni ham ana shunday animatsion ko‘rinishda o‘quvchilarga yetkazib bersak, “Hayrat ul-abror” dostonini tushunishdagi ko‘plab muammolarni bartaraf etgan bo‘lardik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adabiyot: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik/ S. Ahmedov, B. Qosimov, R. Qo‘chqorov, Sh. Rizayev. – T.: Sharq, 2020. – 272 b.
2. Adabiyot Q. 2. / S. Ahmedov, R. Qo‘chqorov, Sh. Rizayev. – Toshkent: Ma’naviyat, 2017. – 160 b.
3. Adabiyot: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua. Qayta ishlangan 4-nashri / Q. Yo‘ldoshev, B. Qosimov, V. Qodirov, J. Yo‘ldoshbekov. – T.: Sharq, 2017. – 368 b.
4. Adabiyot 8: darslik. S.Olimov, S. Ahmedov, R. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019. – 352 b.
5. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktab 9-sinfi uchun darslik. Q. Yo‘ldoshev, V. Qodirov, J. Yo‘ldoshbekov. Qayta ishlangan 4-nashri. – T.: O‘zbekiston, 2019. – 368 b.
6. Adabiyot darslik-majmua. B. To‘xliyev [va boshq.], – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 184 b.
7. Adabiyot 11-sinf: darslik-majmua. B. To‘xliyev [va boshq.], – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. – 200 b.
8. Navoiy Alisher Hayrat ul-abror. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020. – 384 b.

Internet materiallari:

1. UzReport.news.
2. https://youtu.be/D_852JlrmRk

[3] Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020.- B. 384